

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.U.Nurmatova	
Yusuf Hamadoniy- tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi, mutasavvuf olim	428
S.Q.Qaxxorova	
Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirish ularni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash istiqbollari.....	432
A.E.To'Iqinov	
Janubiy Farg'ona kanali suvining tabiiy-geografik tavsifi	437
Sh.T.Abbosova	
Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari	442
M.Мирзарахим	
Роль педагогических стратегий в интеграции искусственного интеллекта.....	448
B.A.Talapov	
Yangi O'zbekistonda inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi	454
Z.Y.Adilov	
Mahmud Az-Zamaxshariy ma'naviy merosining falsafiy tahlili	459
D.D.Boymirzayeva	
Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish va uning tashkiliy-boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash.....	464
I.I.Soliyev	
Oliy ta'lim muassasalarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari	468
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyong'o'shti aminokislota tarkibini o'rganish.....	472
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyong'o'shimcha mahsulotlarining mineral tarkibini o'rganish.....	477
O.O.Isaqov	
Talabalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik tashxisi	483



UO'K: 005.57

YURTIMIZ TARAQQIYOTI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY G'OYA STRATEGIYASINING ISTIQBOLLARI**ПЕРСПЕКТИВЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЙНОЙ СТРАТЕГИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РАЗВИТИЯ И СТАБИЛЬНОСТИ НАШЕЙ СТРАНЫ****PROSPECTS OF THE NATIONAL IDEOLOGICAL STRATEGY IN ENSURING THE DEVELOPMENT AND STABILITY OF OUR COUNTRY**

Abbosova Shoxida Turdaliyevna 
Farg'ona davlat universiteti f.f.b.f.d, (PhD)

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonning taraqqiyotida "Yangi O'zbekiston" iborasi jamiyat taraqqiyotini olg'a siljitivchi vosita bo'lib qolayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari o'rganish hamda ishlab chiqish ehtiyojini vujudga keltiradi. Shunga ko'ra milliy g'oya dunyoning barcha mamlakatlari va jamiyatlar uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, o'ziga xos birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qilindi. Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun milliy g'oya masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz o'tish taraqqiyotning yangi bosqichini boshdan kechirdik. Aynan shunday paytda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi qarashlarning shakllanishiga sharoit yaratildi. Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyat barqarorligida milliy g'oyaning ma'naviy-axloqiy jihatlari ihamda "Inson manfaatlari har narsadan ustun", "xalq boy bo'lsa, davlat ham shunchalik boy va qudratli bo'ladi", "xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishlari kerak" degan g'oyani hayotga tadbir etilishining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация

В статье можно проследить, что в развитии Узбекистана выражение "Новый Узбекистан" остается инструментом, способствующим развитию общества. Это создает необходимость изучения и разработки перспектив национальной идейной стратегии в обеспечении устойчивости общества. Соответственно, национальная идея одинаково важна для всех стран и обществ мира. Каждый народ в переломные моменты своей истории решает прежде всего вопрос идеологии, проблему формирования социальной идеи, которая составляет ее ядро, выступает своеобразным объединяющим ядром. Национальная идея развития нашей страны сегодняшняя практическая значимость вопроса заключается в том, что мы пережили переходный новый этап развития. Именно в это время были созданы условия для формирования взглядов, защищающих интересы различных слоев населения. В данной статье раскрыта социально-философская значимость реализации национальной идеи о том, что сегодня в стабильности общества духовно-нравственные аспекты "интересы человека превыше всего", "чем богаче народ, тем богаче и могущественнее государство", "народ не должен служить государственным органам, а государственные органы народу".

Abstract

The article tells that in the development of Uzbekistan, the expression "New Uzbekistan" remains a tool that contributes to the development of society. This creates the need to study and develop the prospects of a national ideological strategy in ensuring the sustainability of society. Accordingly, the national idea is equally important for all countries and societies of the world. Each nation, at crucial moments in its history, solves first of all the issue of ideology, the problem of forming a social idea, which forms its core, acts as a kind of unifying core. The national idea of the development of our country today's practical significance of the issue lies in the fact that we have gone through a transitional new stage of development. It was at this time that conditions were created for the formation of views that protect the interests of various segments of the population. This article reveals the socio-philosophical significance of the realization of the national idea that today, in the stability of society, the spiritual and moral aspects of "human interests above all", "the richer the people, the richer and more powerful the state", "the people should not serve state bodies, but state bodies should serve the people".

Kalit so'zlar: taraqqiyot, barqarorlik, strategiya, ichki va tashqi siyosat, milliy g'oya, barkamol shaxs, barkamol rivojlanish, mafkuraviy kurashlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, milliy manfaatlar, xalqaro munosabatlar.

Ключевые слова: прогресс, стабильность, стратегия, внутренняя и внешняя политика, национальная идея, гармоничная личность, гармоничное развитие, идеологическая борьба, охрана окружающей среды, национальные интересы, международные отношения.

Ke ywords: progress, stability, strategy, domestic and foreign policy, national idea, harmonious personality, harmonious development, ideological struggle, environmental protection, national interests, international relations.

KIRISH

“Faqat jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan kamol toptirish g’oyat murakkab vazifa. Ayniqsa bugungi kunda – mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega”[1]. Ma’naviy jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi bu asta-sekin jamiyatning, qolaversa, milliy davlatchilikning shakllanish jarayoniga ta’sir etadigan muhim jarayondir. Bularning barchasi o’ziga xos yaxlit bir jarayon doirasida kechadi. Ya’ni, milliy g’oyaning fundamental jihatlaridan biri milliy o’z-o’zini anglash bilan ma’naviy-axloqiy shaxslarni tarbiyalash jarayonidir[2]. Shu o’rinda barcha mamlakatlar barqaror rivojlanish zarurligi anglab etishlariga qaramay, so’nggi yigirma yillikda global miqyosda ma’naviyatli shaxs kontsepsiyasiga ehtiyoj sezilmoqda. 2000-yilda bo’lib o’tgan BMTning barqaror rivojlanish bo’yicha Sammiti ishtirokchilari ta’kidlaganidek, jahonda mavjud muammolarning aksariyat qismi ma’naviy-axloqiy xususiyatlarning buzilishi ekanligi bilan ifodalangan. Bu jarayonni keyinchalik ya’ni, BMT Bosh Assambleyasining 2015 yilgi Barqaror rivojlanish bo’yicha o’tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son Rezolyutsiyasiga muvofiq va 2030 yilgacha bo’lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) izchil amalga oshirish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. Qarorda 2030 yilgacha bo’lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar tasdiqlandi. Ya’ni jamiyatni barqaror rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim ekanligini bildiradi. Bundan ma’lum bo’ladiki, primitiv tarzda etnomilliy g’oya ham shakllana boshlaydi. Keskin o’zgarishlar ta’siri ostida sotsioetnik, keyinchalik esa milliy aynanlashtirish, qayta aynanlashtirish jarayoni uzluksiz davom etadi. Shu tariqa, u jamiyat va milliy davlatning davomiyligini ta’minlaydi. “Bugungi O’zbekiston o’z shuuri va kundalik hayotida aynan shu qayta aynanlashtirish jarayonini boshidan kechirmoqda, desak joiz bo’ladi. Zero, respublika yangi ijtimoiy munosabatlarga muvofiq, respublika xalqlari o’zlarini qayta aynanlashtirishi kun tartibidan joy egalladi.

Jamiyat barqaror rivojlanishi atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy sohaga oid muammolarni bartaraf qilish iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bajariladi. Bu o’rinda jamiyat taraqqiyoti jamiyat qonuniyatlariga bog’liq bo’lib, unda har bir sohaning o’z rivojlanish qonunlari mavjud bo’ladi. Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida ijtimoiy sohani barqarorligida milliy g’oyaning ma’naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirish ham o’zigaa xos tendensiyalar va qonunlar asosida amalga oshadi. Jamiyat rivojlanishi qonunlari unda mavjud bo’lgan tizimlar xususiyatlarining o’ziga xos jihatlarni namoyon etadi. “Qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog’lanishlari, o’zaro aloqalari va munosabatlarning namoyon bo’lishidir”[3]. Demak, jamiyat qonuniyati muayyan shart-sharoitda amal qiladigan voqea va hodisalar hayotiyli, turg’unligi, rivojlanishi yoki halokatining umumiy tendensiyasini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Bugun O’zbekistonni taraqqiyot jarayonining g’oyaviy-mafkuraviy asosini tashkil etuvchi “inson manfaatlarini har narsadan ustun”, “xalq boy bo’lsa, davlat ham shunchalik boy va qudratli bo’ladi”, “xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishlari kerak” degan g’oyani hayotga tadbiq qilishni har jihatdan ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda ro’y berayotgan barcha jarayonlar inson mezonini orqali baholanishiga qaraydigan bo’lsak, uning metodologik asoslari:

birinchidan, g’oya va mafkuralar masalasiga, insoniylik nuqtai nazaridan yondashish, insonga barcha narsalarning o’lchovi sifatida qarash;

ikkinchidan, shaxs ma’naviy qiyofasining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri sifatidagi qarashga asoslangan shaxsni faol ijtimoiy sub’ekt sifatidagi munosabatlari tashkil etadi.

Umuman olganda, mustaqillikdan keyin yangi mustaqil davlatlardan ko’pchiligi turli

obyektiv, aksariyat sub'ektiv sabablarga ko'ra qiyinchiliklarga duch keldi. Bunga yaqqol misol sifatida Moldaviyadagi o'zlarini ruminlar deb hisoblaydigan moldavanlar harakati, Gruziyadagi milliy ayirmachilik harakatlarini ko'rsatish mumkin. O'zbekistonda esa milliy aynanlashish, o'zligini anglash jarayoni butunlay boshqacha, to'la ijobiy yo'nalish kasb etganligidan xabardormiz. Tabiiyki, uning milliy xususiyatlarga borib taqaluvchi bir qancha sabablari mavjud. O'zbekistonning metropoliyaga nisbatan kolonial holati, yurtimizning ikkinchi darajali chekka xom ashyo bazasiga aylantirilganligi, o'sha fojiali kezlarda o'zbeklarga ikkinchi darajali xalq deb qaralganligi va boshqa salbiy jarayonlar ongimizning chuqur qatlamlarida Ittifoqqa taalluqli emasligimizni chuqur his etish bilan bog'liq ko'plab obyektiv va sub'ektiv holatlar mavjud ediki, pirovardida u qanchalik ulkan va qudratli bo'lmasin, Sobiq Ittifoqning barbod bo'lishini o'zbekistonliklar diliga yaqin olishgan emas. Ya'ni undan fojia yasamasdan, ushbu jarayonning, zamirida yotgan ko'pgina obyektiv va sub'ektiv omillar anglab etildi[4]. Bugun O'zbekiston Resublikasida ayni vaqtda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilmoqda. Bu esa ulardagi va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanishga erishish imokniyatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda, shubhasiz, milliy g'oyaning o'rni beqiyos. O'zbekistonda yashayotgan insonlar millati, tili, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar qonun oldida tengligi Konstitusiyamizning 18-moddasida belgilab qo'yilgan. Ya'ni fuqarolar yagona xalq vakillari ekanligi ta'kidlangan. Ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirishda har bir rivojlangan davlatda muhim demokratik qadriyat sirasiga kirgan milliy g'oyaning o'rni va roli bor.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, muayyan davlatning milliy manfaatlari geografik holati, tarixi, madaniyati, etnik tarkibi hamda siyosiy an'analarga qarab belgilanadi. U o'z navbatida, doimiy hamda muvaqqat manfaatlarni qamrab oladi. Tabiiyki, o'zgarmas hisoblangan doimiy manfaatlar bilan muvaqqat, ya'ni vaqtinchalik manfaatlar o'rtasida o'ziga xos manfaatlar yig'indisi mavjudki, ular milliy g'oyada aks etadi. Tahlilchi va siyosat arbobi S.Stankevichning fikri ancha avval, ya'ni mustaqillik davrining dastlabki yillari voqeligini qamrab olgan bo'lsa-da, unda muhim e'tiborga molik bir jihat borki, u milliy manfaatlar bilan milliy g'oyani umumiylikda ko'rish zaruratida ifodalanadi. Bizningcha, siyosatchining bu mulohazasi milliy manfaatlarning bugungi kun tasnifiga to'liq mos tushmasada, undagi asosiy jihat milliy g'oya va milliy manfaatlar hodisalarining bir-birini keltirib chiqarishiga ishora qilinganligidadir. Jumladan, olim fikrida milliy g'oya - milliy aynanlashishdir. U nihoyat darajada hissiyotga to'la mavzu bo'lib, millatning muttasil o'zgarib boruvchi tarixiga, millatning o'tmishi va kelajagi haqidagi tasavvurlar yig'indisiga borib taqaladi"- degan asosli jumla bilan yakunlaydi[5]. Shu nuqtai nazardan, professor A.Serguninning (Sankt-Peterburg) "...xalqaro munosabatlar nazariyasi tizimida alohida ahamiyatga ega "milliy manfaatlar"ning "milliy g'oya" tushunchasi bilan bog'lash amaliyotiga shubha bilan qarashi" [6] ni tushunish ancha qiyin, deb o'ylaymiz. Lekin xalqlar tajribasi, tarixiy jarayon boshqa bir haqiqatni, ya'ni milliy g'oya va milliy manfaatlarning o'zaro bog'liqligini allaqachon tasdiqlab qo'ygan. Zero milliy manfaatlar ulkan siyosiy kuch bo'lishi bilan birga qadriyat hamdir. U yoki bu davlatning obro'si va maqomi aynan shunga qarab belgilanadi. Milliy manfaatlar davlatning ma'naviyatiga daxldor bo'lib, uning sifatijihati hisoblanadi.

Afsuski, bu haqiqatga nisbatan fikrlar juda turli-tuman bo'lib, mutaxassislar va siyosatchilar orasida milliy manfaatlarga ikkinchi darajali omil va unchalik muhim emas, deb qaraydiganlar ham topiladi. Bunday bahs-munozara, ayniqsa, mustaqillikning birinchi yillarida, foydadan ko'ra, ko'proq zarar, jamiyat uchun talofat keltirganligi isbot talab qilmaydigan aksioma sanaladi. Milliy manfaatlar ustuvorliklari, bevosita davlat hokimiyati tomonidan ishlab chiqilishi va uning to'laqonli siyosiy amaliyot ekanligidan kelib chiqqan ayrim mutaxassislar milliy manfaatlarni, bir tomondan, asossiz ravishda hukmron doiralarning manfaatlaridan boshqa narsa emas deb hisoblashsa, ikkinchidan, XXI asr realliklariga zid "konservativ xom xayol" deb talqin qiladi [7]. XXI asrda, ya'ni "milliy davlatlar yemirilib borayotgan", ularning mas'uliyati va vazifalaridan aksariyati esa transmilliy faktorlar tasarrufiga o'tayotgan bir paytda milliy manfaatlarni ustuvor deb bilish, davlatlarning mavqeiga putur etkazadi va ularni global jarayonlar hamda dunyo hamjamiyatiga qarshi qo'yadi. Shunday ekan, faylasuf olim B.Kapustin, bugun yagona yo'l, u ham bo'lsa, biqlikni engish, plyuralizm, siyosiy madaniyatlilik, madaniyatlararo muloqot va tolerantlik [8] deb ta'kidlaydi. Albatta, jiddiy muammoga bu darajada mavhum yondashuv atrofida bahs-munozara qilish zarurdir, ammo

uni O'zbekiston realligiga tatbiq qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatida bosh ustuvorlik davlat jamiyat va har bir fuqaroning manfaatlarini himoya qilish bo'lib, mamlakat uchun ishonchli xavfsizlikni ta'minlash, uning suverenitetini bir butunligini asrash, dunyo hamjamiyatida mustahkam o'ringa ega bo'lish, xalq uchun xavfsiz sharoit yaratishga qaratilgan jarayonlarga imkon doirasida ta'sir o'tkazish, davlatimizning bosqichma-bosqich rivojlanishi uchun qulaylik hozirlash, yon-atrofdagi yaxshi qo'shnihilik iqlimini yaratish borasidagi ishlarimiz aynan shu jarayonlarga qaratilgan.

Milliy manfaatlar boshqa xalqlar bilan hamjihat bo'lgan holda, yangi imkoniyatlar ochiladi. Shu nuqtai nazardan, rossiyalik faylasuf olim M. Mayorovning "Axloqlilik va milliy manfaatlar xususida" maqolasida bildirgan fikri juda asosli deb hisoblaymiz: "Suverenitet va tanlash erkinligini ro'yobga chiqarish uchun yangi xalqaro tizim asosiga o'zaro tutash manfaatlar izlash tamoyilini qo'yish lozim. Aynan shu siyosat xalqaro munosabatlar va xalqaro faoliyatda ahloqlilikning qaror topishiga olib keladi" [9]. Shu boisdan, davlat rahbarining ko'plab nutqlari va muloqotlarida, qolaversa, milliy manfaatlariga doir rasmiy hujjatlarda o'z ifodasini topmoqda. Davlatimiz Konstitutsiyasi Tashqi siyosat bobida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin"[10] deb belgilangan. Ba'zi mutaxassislarining ishlarida, jumladan, milliy manfaatlar ustuvorliklarida "o'z-o'zini asrab qolish" g'oyasiga shubha bilan qarash, ya'ni muammoni asossiz ancha erkin talqin etishni uchratamiz.

Dunyoda tengi yo'q kuch-qudratga ega davlatning boshlig'i o'zining "Dunyo bo'ylab demokratiyani yoyish (to'g'rirog'i, tiqishtirish) bo'yicha yangi doktrinasi"da [11] "Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida urg'u berganligining o'zidoktrinasi"da [12] "Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida urg'u berganligining o'zi bunday fikrlar O'zbekiston voqeligini aks ettira olmaydi"[13] deb hisoblashga asos yaratadi. Demak, xalqaro jarayonlarni borishi chigal, istiqbol unchalik aniq emas. Ayrim ijtimoiy muammolar tufayli ortiqcha sarf-xarajat bilan bir qatorda, jahonda ro'y berayotgan salbiy tendentsiyalar birlashib yangi mustaqil davlatlar rahbariyatlari uchun qo'shimcha qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Moskva davlat Universiteti professori, faylasuf olim Olga Volkogonova "Yillar mobaynida odatdagi narsa bo'lib tuyulgan qadriyatlar tizimining emirilishi va yangilikning esa tezgina shakllanmaslik holati aholida "himoyalansizlik kompleksi" paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Agar ijtimoiy barqarorlik asolarida tizim turg'un, mustaqil me'yorlar orqali mustahkam saqlanib turgan bo'lsa, o'tish davrlariga kelib vaziyat tubdan o'zgaradi. Mavjud tayanchlardan ayrilgan odamlar yangisini izlay boshlaydi, ya'ni yangi tayanch nuqtalarga chuqur ehtiyoj seza boshlaydi"[14] deb bugungi vaziyatga aniq tavsif bergan edi.

Tabiiyki bunday sharoitda yangi jamiyat uchun to'g'ri, talofatsiz taraqqiyot yo'lini belgilash, ya'ni milliy manfaatlarini sarhisob qilishning eng xavfli milliy ustuvorliklar oshkora millatchilik bilan chirmashib ketadi. "Milliy ravnaq sari yurish" deb e'lon qilingan maqsad aslida millatchilik, milliy biqlik va agressiv millatchilikka aylanadi. Birinchi Prezident I. Karimov rahbarligi ostida mamlakatimiz bu singari kayfiyatlar, chetga chiqishlar va ommaviy adashish holati va boshqa salbiy unsurlarni muvaffaqiyatli chetlab o'tishga, o'z milliy taraqqiyot yo'li va o'z g'oyasini topishga erishgan. Tamomila yangi bozor munosabatlarining jiddiy qiyinchiliklari, yangi demokratik siyosiy tizim va ma'naviy aynanlashish jarayonlarini xalqimiz obyektiv holat deb baholangan edi. Siyosiy rahbariyat "allaqanday kimsalar tomonidan sun'iy yaratilgan miflar yoki bo'lmasa bir necha bor tarix tomonidan inkor etilgan tasavvurlar ummonida emas" real hayotda yashashni afzal ko'rishgan[15]. O'sha murakkab ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy vaziyatda "axloq bilan siyosatni"[16] realizatsiyalash bilan burchga sodiqlikni, bugungi bosqich talablari bilan ajdodlar vasiyatini, alg'ov-dalg'ovlarga to'lib tushgan xalqaro siyosatni milliy ideallarimiz va orzu-niyatlarimiz bilan o'zaro uyg'unlashtirishdan murakkab vazifani bajargan. Tarixning ma'naviy, diniy va falsafiy zamiriga tayangan holda, yangicha taraqqiyot yo'lini, milliy manfaatlarimizni aniq belgilash imkoniyatiga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fidoing bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-

tashviqot ishlari dasturi asosida amalga oshirilgan davrdan boshlab ijtimoiy sohaga kuchli e'tibor berila boshlandi.

XULOSA

Bugungi kunda milliy g'oyaning maqsadi jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yo'nalishlarini hamda Vatanga sadoqat his-tuyg'ularini yuksaltirishdan iboratdir. Bu o'z navbatida xalq va millat dunyoqarashini shakllantirishda milliy g'oyaning ta'lim-tarbiya, axloq normalariga mos ekanligi hamda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda inkor, yangilanish va vorisiyliklik tamoyillari o'zida ifoda etadi. Jamiyat a'zolarining bag'rikenglik, ishbilarmonlik, mehnatga, kasbu hunarga moddiy hamda ma'naviy boylik yaratishning bosh bo'g'ini sifatida qarash, o'zaro bir-biriga ko'maklashish, jamiyat manfaatlari, barqarorligi vazifasini o'taydi. Yuqorida keltirilgan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. "Harakatlar strategiyasi" jamiyat manfaatlari, davlatimizda siyosiy barqarorlik va fuqarolar osoyishtaligi hamda farovonligiga qaratilgan siyosat bo'lsa, "Taraqqiyot strategiyasi" yo'lida alohida bir ko'rinishga ega bo'ladi. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilanganidek, "Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish"[17]. Bu esa jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oyaning ma'naviy-axloqiy jihatlarni yoshlar ongi va qalbiga singdirish muhim ahamiyatga ega ekanligi bildiradi.

"Ijtimoiy adolat, xolislik va oshkoralik tamoyillariga amal qilish, moddiy yordamning aniq yo'naltirilishini ta'minlash, oilada daromadi va mol-mulkini har tomonlama hisobga olish, mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish" O'zbekiston ijtimoiy siyosatining istiqboldagi bosh tamoyillari etib belgilandi. Mamlakat taraqqiyoti va xalqning turmush darajasini yaxshilash, barcha ijtimoiy islohotlarni aynan shu fundamental maqsadga yo'naltirilganligi bilan ifodalanadi.

Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ushbu tamoyil, aslida barcha o'zini va o'zгани hurmat qilgan xalqlar ijtimoiy ideallarida ham markaziy o'rin egallagan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun " xalqaro tashkilotlarning gegemonizmga, jahoniy hukmronlikka nisbatan qat'iy siyosatini har tomonlama rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir"[18]. Ayni paytda, qandaydir aksil g'arb tashkilotga asos solishga da'vat qilish emas, balki milliy rivojlanish andozamizni, milliy g'oya va milliy qadriyatlar uchun asrab qolish zarurati to'g'risida qayg'urish har bir xalq davlat va jamiyat manfaatdordir. Iqtisodiy hamda harbiy imkoniyat ustidan ochiq g'alaba qilgan dunyo endi biror-bir jiddiy chora-tadbir qo'llay olmaydi. Agarki, "...ong bilan tafakkurda o'z aynanligi asosida yashash bilan bog'liq maqsad va qadriyatlarining uyg'onish jarayoni kechmoqda. Dinuy e'tiqodga yana qaytish, eng muhimi, jahonda o'zining kim ekanligini chuqur his etishga intilish bir necha asrlar mobaynida jahoniy liderlikka ko'nikib, undan "rohatlanishga" odatlangan G'arb uchun ulkan tahdidir"[19] - degan fikr mulohazalarni O'zbekistonimizga tatbiq qilib ko'radigan bo'lsak, milliy g'oya jamiyatimiz uchun nechog'lik buyuk kuchga egaligi yanada aniqlashadi.

Darhaqiqat, milliy g'oyaning kuchi tufayli, jamiyatimiz bugun har qachongidan ham qudratli ekanligiga iqror bo'lamiz. Shuningdek, O'zbekiston dunyo miqyosida ro'y berayotgan globallashuv jarayonini ham hisobga olish darkor. Shunday ekan milliy g'oya ham yangi global sharoitga moslashishi, kerak bo'lsa, undan o'zi uchun zarur tajribani olishi lozim. Shu tarzda O'zbekiston taraqqiyotining bir tomondan dunyodagi osoyishtalikka hissa qo'shish barobarida, millatning mavqeini, davlatning kuch-qudratini muttasil oshirib borishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston. 2021. - B. 274.
2. Nazarov K. Falsafa-asos. - T. : O'zbekiston, 2005. - B. 384.
3. "2030 yilgacha bo'lgan davr barkaror rivozhlanish so'hasidagi milliy masad va vazifalarniye amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qo'mitasi. //http://lex.uz/docs/4013356.
4. Karimov I. Bizlarga ikkinchi darajali millat deb qaralar edi // Xalq so'zi, 03.2006.
5. Сергей Станкевич: «Путч 1991-го года мог победить только как внезапный "Блицкриг"»
<http://neuezeiten.rusverlag.de/2011/08/17/1712->
6. Сергунин А. Проблемм национальной и международной безопасности в Российской ТМО. // Вестн. Моск. ун-та. Сер.18. Социология и политология. № 2, 2007. - С. 14-15.

ILMIY AXBOROT

- 7.КапустинБ. Национальный интерес как консервативная утопия. // Свободная мысль, № 3, 1996. - С. 13, 16-19.
- 8.O'sha manba - С. 28.
- 9.Матросов М. О нравственности и национальных интересах // Международная жизнь. № 1-2. 2007. - С. 7.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - Т.: Adolat. 2019. - В. 7.
- 11.Сергунин А. О проблеме национальной и международных отношений // Вестн. Моск.ун-та, сер.18, Социология и политология. № 2, 2004. - С. 15.
- 12.Дж. Буш. Послание Президента "О положении в стране". 02.02.2005. - Вашингтон.; // 09.03.05. Qaralsin: // Безопасность Евразии, № 2-2005. -С.11., 13. Зьпарь М. Буревестник цветных революций // Коммерсант, 20.05.2005.
- 14.Волгогонова О.Д. Русский национализм: политический проект для России? // Россия и современньш мир. № 1, 2005. -С. 35.
- 15.Иноземцев В. Нравственность и реализм: возможен ли синтез? // Свободная мысль, №3, 2007. - С. 189.
- 16.Alimardonov Т. Siyosat va ahloq. – Toshkent: 2006.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
- 18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022 y.
- 19.Karimov I. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. - Т.: O'zbekiston, 2007 - В. 94-95.